Tarixchi bo‘lish mumkin ...



Yaqinda Rossiyaning NTV telekanli orqali efirga uzatilgan intervyu, mamlakatimiz olim va ziyolilari, umuman barcha aholimizda katta noroziliklarga sabab bo‘ldi. Eslatib o‘tamiz, rossiyalik tarixchi Mixail Smolinning o‘zbeklar, qozoqlar va ozarbayjonlar millat sifatida 1917-yilga qadar mavjud bo‘lmagan, inqilobdan keyingina ular SSSR nomi bilan paydo bo‘lgan, degan g‘ayriilmiy safsatani o‘rtaga tashladi.

Tarix fanlari nomzodi, publitsist va Rossiya yozuvchilar uyushmasining a’zosi Mixail Smolinning ilmiy va ijtimoiy faoliyatiga nazar tashlasak, uning bunday fikrlariga nimalar sabab bo‘lgani o‘z-o‘zidan tushunarli bo‘lib qoladi. U konservativ fikrlovchi Rossiya imperiyasining tadqiqotchisi va ashaddiy muxlisi, barcha kitob va maqolalarini ushbu imperiyaning tarixi va “afzalliklar” bag‘ishlab yozgan, uning izchil targ‘ibotchisi hisoblanadi. Achinarlisi, smolinlar va prilipinlar kabi shovinistlarga Rossiya media maydonida Rossiya imperiyasi hamda Sovetlar istibdodiga qaytishni qumsovchi “soxta tarixchi va siyosatchi”larga keng yo‘l ochib berilgan. Buning ustiga rossiyalik rasmiy mas’ullar ham davlatlar orasidagi do‘stlik va hamkorlik munosabatlariga rahna soluvchi bu kabi imperialistik va shovinistik chiqishlarga nisbatan “bu rossiya rahbariyatining emas, siyosatchining shaxsiy nuqtai nazari” yoki “bu tarixchining vijdoniga havola” qabilida ish tutmoqdalar.

Endi tarixchi M.Slominning e’tiborini o‘zbeklar haqidagi ilmiy va tarixiy haqiqatlarga qaratamiz.

O‘zida qarluq, qipchoq va o‘g‘uz shevasi vakillarini birlashtirgan o‘zbek xalqi nomi va millat sifatida mavjudligi juda qadimiy davrga borib taqaladi. Bir xalq tarix davomida turli nomlarda atalib kelishi bu tabiiy hol. Bu o‘rinda o‘zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixi jarayonida asosan turkiy etnoslar (2 ming yildan beri mavjud) ko‘proq va faolroq rol o‘ynaganligi ta’kidlash muhim. Milodning I asridan Kushon podsholigi davrida boshlab mintaqada turkiy elatlarning faol migratsiyasi ilk o‘rta asrlarga kelib turkiy etnik plastning yanada kengayishiga olib keldi.

Endi o‘zbek nomining yozma manbalarda tilga olinishiga kelsak u XIV asrga borib taqaladi. Bu nom o‘zi bilan birga o‘zbek adabiy tilining ham shakllanishiga xizmat ko‘rsatdi. Adabiyotlarda “chig‘atoy tili” (aslida eski o‘zbek tili) deb nomlangan turkiy tillarning qarluq guruhiga mansub bo‘lgan va mahalliy turkiy lahjalar negizida o‘zidan oldingi davrlarning adabiy-lingvistik an’analari ta’siri ostida shakllangan til bo‘lib, XIV asrning 2-yarmidan XIX asr oxirlarigacha mavjud bo‘lgan yozma kitobiy til hisoblanadi. O‘zining asarlarini turkiycha/o‘zbekcha yoki chig‘atoy tilida bitgan Haydar Xorazmiy, Lutfiy, Atoiylar shular jumlasidandir.

Xorazm hududi esa mumtoz chig‘atoy tili (eski o‘zbek tili) shakllangan va xorazm o‘zbekchasi yohud turkiychasi unga asos bo‘lgan deb hisoblanadi. Hatto X asrda O‘zbekistonning asosan Xorazm va qisman keyingi davrlarda Zarafshon vohasida yashagan o‘g‘uzlarning o‘zbek atamasi bilan bog‘liqligi haqida ham fikrlar mavjud. Movarounnahrga kelgan O‘zbekxon va uning odamlari “o‘zbek” nomining asosiy tashuvchilari edilar. Qoraxoniylarning Amudaryo – Sirdaryo oralig‘i va unga qo‘shni hududlarni qo‘lga kiritib, Farg‘ona vodiysi, Shosh (Toshkent), Taroz, Isfijob (Sayram) Samarqand, Buxoro kabi mintaqaning yirik ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy markazlarni qo‘lga kiritishi natijasida “xoqoniya turkchasi” O‘rta Osiyoning yozma adabiy tiliga aylanadi. Bu lahjaning Xorazm vohasida ayrim o‘g‘uz va qipchoq elementlarini olib, “Xorazm turkiysi” nomini olishi va shu tariqa “chig‘atoy turkiysi”ga boshlanma berishi esa dastlab Qoraxoniylar, birmuncha keyin esa Xorazmshoh-Anushteginiylar davridagi tarixiy voqeliklar bilan bog‘liqdir. O‘zbekiston va unga tutash hududlarda qurilgan – O‘g‘uzlar, Qarluqlar davlatlari, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G‘aznaviylar davlatlari davrida faol yuzaga chiqqan va boshqaruvni egallagan, shu bilan birga mo‘g‘ullar bilan birga yoki ulardan keyin kirib kelgan ko‘p sonli turkiy urug‘lar XIII asrda azaldan turkiy o‘q ildizli Turon (2,5 ming yilliy nom) yoki Turkiston (milodning VII asrdan beri mavjud) aholisining titul nomiga aylana boshladi. XV asrda Alisher Navoiy g‘azallarida “O‘zbegim boshida qalpoq, egnida shirdog‘i bas” yoki “Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdur, muayyan turk ulusi xud meningdur” misralari bejizga yozilmagan. XVII-XVIII asrlarda o‘zbek nomi Yevropada “Uzbekiya” nomi ostida berila boshlandi.

Bu – tarixiy haqiqat ! Ming afsuski, rossiyalik tarixchi olim va publitsist Mixail Smolin ushbu tarixiy haqiqatni anglashni xohlamay o‘zining g‘ayri ilmiy safsatalari bilan o‘zbek, qozoq va ozarbajon halqlariga nisbatan tuhmat yog‘dirdi hamda tarixchi olim degan yuksak nomga dog‘ tushirdi.

Bahrom Abduhalimov,

O‘zR Fanlar akademiyasining vitse -prezidenti,

tarix fanlari doktori, professor